

UZBEKISTON RESPUBLIKASI
SHARH KITOB PALATASI
INV. N

Ajdodlar e'zozga, sharafiga loyiqdirlar!

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

TONG

YULDUZI

2009-yil
24-avgust
N:34
(66731)


Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



NIHOL - 2009



Toshkent - 2200



Bo'zsuv sohilida barpo etilgan ulkan yodgorlik majmuidan ziyoratchilarning qadami uzilmaydi.

2-bet


4 - bet

Diyorim bag'rida seyr yashaydi, Diyonat yashaydi har bir yurakda

31-Avgust – «Qatag'on qurbonlari xotirasi» kuni

Istiqlol yillarida yurtimizda yuzlab zamonaviy inshootlar, ko'priklar, ko'cha va xiyobonlar, ziyoratgoh va yodgorlik majmualari bunyod etildi. Yurtboshimiz Islom Karimov tashabbusi bilan poytaxtimizda bunyod etilgan «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui ana shunday muborak qadamjoldandir. Bo'zsvu sohilida barpo etilgan bu ulkan yodgorlik majmuidan ziyoratchilarning qadami uzilmaydi.

Yurtimiz mustaqilligining 18 yilligi nishonlanayotgan shu kunlarda bu maskan yanada gavjumlashgan. Zero, bugungi osuda va farovc.a hayotimizning qadriga yetib, moziy



sahifalaridan, ota-bobolarimizning iztirobli kechmishlaridan saboq chiqarib, nurlu kelajak sari dadil itilishimizda bunday tabarruk qadamjolar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Qatag'on qurbonlari kuni munosabati bilan 31-avgust erta tongida

poytaxtimizdagi «Shahidlar xotirasi» xiyobonida xalqimizning ozodligi va mustaqilligi yo'lida qurbon bo'lgan marhumlarni yod etish marosimi o'tkaziladi. An'anaga ko'ra Qur'on tilovat qilinib, qatag'on qurbonlari ruhiga hurmat bajo keltiriladi. Bu ishlar, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, xalqimiz, ayniqsa, bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan yosh avlodning ongu shuurida tarixiy adolatga ishonch, ezgu insoniy fazilatlarini qaror toptirish, ularning ma'naviy olamini yuksaltirishda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekani bilan, ayniqsa, e'tiborlidir.

ZEBO qiz



«Istiqlol ilhomlari»

SHOIRAGA

Ko'zlari munchoq,
Dimog'i xo'p chog'.
O'ynaymiz birga,
Har kuni, har chog'.

Qilig'i yoqar,
Muloyim boqar.
Mitti Shoir
Hammaga yoqar.

O'zi dono qiz,
Manglayida yulduz.
Qo'lida kitob,
Kecha-yu kunduz.



Dilbaroy PRIMOVA,
2-sinf o'quvchisi

TOSHKENT

Toshkent bog'larida o'ynar qizaloq,
Qalbida juda mo'l uning orzusi.
Hayrat, hayajondan porlar ko'zlari,
Go'yo kelajakning nurlu ko'zgsi.

Diyorim bag'rida seyr yashaydi,
Diyonat yashaydi har bir yurakda.
Bu yerda barq urar muhabbat, mehr,
Ezgulik yashaydi har bir tilakda.

Dilnoza SA'DILLAXO'JAYEVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l
tumanidagi 6-maktabning 8-sinf
o'quvchisi



Charaqlab chiqsin quyosh,
Bu moviy ko'kda porlab.
Dunyoga nurlar sochsin,
Bizni qirlarga chorlab.

Uning mehri qonib,
Bog'da g'uncha ko'z ochsin.
Har tong bizni erkalab,
Mayin nurlarin sochsin.

**Rayhona
TOSHIPO'LATOVA,**
Toshkentdagi
258-maktabning
4-sinf o'quvchisi



Jizzax tumanining «Ziyokor» mahallasida joylashgan 27-sonli «Istiqlol» maktabgacha ta'lim muassasasi qoshida tashkil etilgan (bog'cha-maktab) kunduzgi sog'lomlashtirish oromgohida 125 nafar o'g'il-qiz maroqli hordiq chiqarishmoqda.

– Oromgohimiz juda xushhavo yerda joylashgan, – deydi yetakchi Xalq maorifi a'lochisi, oliy toifali pedagog Zilola Sharipova. – To'rt tarafi ham daraxtzor.

Zilola opa hamrohligida so'lim maskanni aylanarkanmiz, atrofning ozodaligi, Sangzor daryosining sharqirab oqishi va qushlarning sayrashi bizga zavq bag'ishladi. Shu kuni qizg'in

musobaqa ustidan chiqdik. Dam oluvchilar qo'shni oromgohlarda dam olayotgan tengdoshlari bilan shaxmat-shashka, yengil atletika, futbol, voleybol, tennis bo'yicha bellashishayotgan ekan. Sport yo'riqchisi Shodmon Dadajonov boshchiligida g'oliblarga sovg'alar ulashildi.

– Bu oromgohga birinchi kelishim, – deydi Zarifa Yunusova. – O'tgan yili o'rtoqlarimdan eshitib, rosa havas qilgandim. Har bir kunimiz sermazmun o'tmoqda.

– O'n bir yoshdaman, – deydi Qobil Asqarov. – Mazza qilib dam olayapmiz. Rasm chizish, badiiy havaskorlik, ekologiya, jismoniy tarbiya va sport to'garaklari faoliyat olib bormoqda.

«Ziyokor» mahalla fuqarolar yig'ini raisi Dildora opa Saidova bu ishlarga bosh-qosh bo'lib, zarur mablag'lar bilan ta'minlab turibdi.

Shuningdek, Zomin tumanidagi «Aloqachi», Forish tumanining «Kattabog'» qishlog'ida joylashgan «Kamolot» oromgohida bo'lganimizda ham 200dan ziyod o'g'il-qiz miriqib hordiq chiqarishayotganiga guvoh bo'ldik. Bu bolajonlarning kelasi haftada boshlanadigan yangi o'quv yilini yangi kuch-g'ayrat bilan boshlab yuborishlariga shubha yo'q.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati

ASSALOM, MAKTAB!



Mening ismim Kamronbek. Bu yil poytaxtimizdagi 50-ingliz tili va matematikaga ixtisoslashtirilgan maktabga borish taraddudidaman. Maktab tushlarimga ham kirib chiqyapti. O'qishni, yozishni, sanashni o'rganib oldim. Kitob o'qish, velosipedda uchish jon-dilim. 1-sentabrni intizorlik bilan kutyapman. Chunki Prezident bobomiz bizga atab ichiga o'quv qurollari solingan chiroyli papkalar hozirlab qo'ygan ekanlar. Buni oyijonim aytdilar.

Hozirgacha «O'zbek xalq ertaklari», «Rus xalq ertaklari», «Chiroyli yozamiz» kabi kitoblarni o'qib chiqdim. Gazeta-jurnallar o'qishni ham juda yaxshi ko'raman.

Yana oyijonimga uy ishlarida qarashaman. Jajjigina jiyanchalarim Azizbek, Asilbek va Muhammadaminlarga qarab turaman. Bobomdan kattalarni hurmat qilishni, ularga salom berishni o'rganyapman. Yaqinda katta, qo'shaloq bayram bo'ladi. Barchani Mustaqillik bayrami bilan chin dildan tabriklayman.

Manzura UBAYDULLAYEVA,
o'z muxbirimiz

SHE'RIYAT OLAMIGA SAYOHAT

HAVASDA GAP KO'P

Men yaqinda 47 yoshga to'ldim. Qo'limga ilk bor qalam olganimga oz emas, ko'p emas, 37 yil bo'libdi. Buning hamma-hammasiga oddiy havas sabab bo'lgan.

Dunyodan Shukur Sa'dulla degan shoir yashab o'tgan. O'sha shoirning «Bahor» haqida bir she'ri bor. She'rda:

**Keldi bahor, gulbahor,
Erib bitdi oppoq qor.
Uchib keldi qushlarjon,
Daraxtlar taqdi marjon...** kabi o'ynoqi misralarni o'qiganman.

(Boshi o'tgan sonda)

Yoshligimda shu she'rni o'tirsam ham, yursam ham yoddan aytaverardim. Qushlarning «qushlarjon» deb atalgani, daraxtlarning «marjon» taqishgani bir hayratimga o'n hayrat qo'shar edi.

Bir kuni ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Lolaxon opa Yusupova uya «Bahor» mavzusida insho yozib kelish vazifasini topshirdi. Darsdan so'ng bir zumda sinfdoshim G'ofurjonlarnikiga yetib bordim. Chunki inshoni birgalashib yozishni dars paytida kelishib olgan edik. Xullas, tashqarida qish, sovuq, tanchadagi cho'qqa oyog'imizni

«KIM KO'P KITOB O'QIYDI?»

KICHKINA DEMANG BIZNI...

Tahririyatimizga onasi bilan yetaklashib kirib kelgan tortinchoqqina qizaloqning shuncha iqtidori borligini xayolimizga ham keltirmagandik. Sirdaryo viloyati, Sayxunobod tumanidagi 28-umumta'lim o'rta maktabining 5-sinf o'quvchisi Shohinur Usmonova «Yangi avlod – 2008» bolalar ijodiyoti festivali g'olibasi ekan. 5 yoshidanoq o'qish, yozish va chizishni o'rganib olgan Shohinur bilimdonlig-u zukkolikda maktabdoshlaridan ajralib turarkan.

U tahsil olayotgan maktab rahbari H.G'oyibov hamda sinf rahbari N.Niyozovalar shogirdlariga quyidagicha ta'rif berishibdi:

– Shohinur maktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga, 9 yoshidan she'rlar ham mashq qiladi. Ijod namunalari Respublika matbuotida tez-tez ko'rinib turadi. U Guliston shahridagi «Nihol» to'garaging faol qatnashchilaridan biri. O'zbek hamda chet el bolalar adabiyoti durdonalarini sevib mutolaa qiladi. Shuningdek, Anvar Tog'ayev, Hayot Shodmon, Baxtiyor Vatan kabi ijodkorlar bilan ijodiy muloqotda bo'lib turadi. Maktabimiz kutubxonasining eng faol a'zolaridan bo'lgan Shohinur ayni paytda juda ko'plab kitoblar sotib olib, o'zining shaxsiy kutubxonasini tashkil qilish harakatida.

Shu kungacha 40 dan ziyod badiiy kitoblar o'qigan Shohinurni gazetada e'lon qilingan «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovida qatnashishga munosib nomzod deb hisoblaymiz.

TAHRIRIYATDAN:
«Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovi farzandlarimizning yozgi ta'til kunlarida e'lon qilingani ayni muddao bo'ldi-da. Bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari, shuningdek, kitobga mehr qo'yib, ma'naviy olamini boyitishlariga turtki bo'ldi, deya maktub yo'llabdi bir onaxon tahririyatimizga. Zero, tanlovni o'tkazishdan ko'zlagan maqsadimiz ham shu edi.

SEHRGARGA

DUCH KELSAM...



Kitob o'qish eng sevimli mashg'ulotim. Nafaqat o'zbek, balki ingliz tilidagi kitoblarni ham miriqib o'qiyman. «English reader» kitobidagi bir qancha ertak va hikoyalarni o'zbek tiliga tarjima qildim. Kelajakda buyuk o'zbek yozuvchilarimizning asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish niyatidaman.

tanloviga

«Tong yulduzi» gazetasini sinfimiz bilan o'qib boramiz. «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovida qatnashish uchun maktabimizda yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma g'oliblikni qo'lga kiritdim.

Kitobga bo'lgan mehrim oilamizdagi muhitga bog'liq bo'lsa kerak, deb o'ylayman. Bobom A.Ahrorov uzoq yillar mobaynida o'qituvchilik kasbini ardoqlab kelganlar. Juda ko'p kitoblar yig'ib, kattagina kutubxona tashkil qilganlar. Bo'sh vaqtim asosan ana shu kutubxonada o'tadi. Ko'proq ma'lumotlarga boy, ilmiy asarlar o'qishga qiziqaman. O'zimga kerakli kitoblarni shu yerdan topaman-da.

Biz texnika asrida yashayapmiz. Kompyuterlar orqali xohlagan ma'lumotimizni olishimiz mumkin. Lekin kitobni qo'lga olib, bafurja varaqlab o'qishning gashtiga nima yetsin?! Mo'jiza yuz bersa-yu, sehrigarga duch kelib qolsam, dunyodagi eng katta kutubxonam bo'lishini so'ragan bo'lardim.

Shahnoza SHAMSIDDINOVA,
Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi 1-umumta'lim o'rta maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi


TA'TILDA TOPILGAN XAZINA

Hademay yangi o'quv yili boshlanib, ustozingiz «Ta'tilda qanday kitob o'qidingiz?» deya savol berishlari tabiiy. Bu savolga Ohangaron shahridagi 14-maktabning 7-sinf o'quvchisi Mavluda Eratliyeva hozirdanoq javob topib qo'yibdi.

U ustoziga o'qigan kitoblari to'g'risida so'zlab berishdan oldin, o'zi topib olgan


katta xazina haqida aytib bermoqchi ekan. Qanday xazina ekan, deysizmi?

Mavluda yozgi ta'tilini tog'lar bag'rida joylashgan «Zilola» oromgohida o'tkazayotgan ekan. Bir kuni aylanib yurib, oromgohdagi kutubxonaga kirib qolibdi. Kitobni ulkan xazina deb hisoblovchi Mavluda rang-barang kitoblarni ko'rib, juda quvonib ketibdi. U darhol badiiy asarlar ichidan sevimli adibimiz Odil Yoqubovning «Qaydasan, Moriko?»



asarini tanlab olib, kitobni berilib o'qiy boshladi. Biroz fursat o'tgach, kitobni o'qib bo'lgan Mavludaga «Kitob qiziqarli ekanmi?» deya savol berganimizda, u biroz o'ylanib turib: «Judayam qiziq ekan. Ta'tilda ko'p kitob o'qidim. Lekin Morikoning bolaligi menga o'zgacha ta'sir qildi. Bu kitobni o'qib, bolaligimiz judayam quvnoq, maroqli va eng asosiysi, osoyishta o'tayotganligini tushunib yetdim. Kelasi yili bu oromgohga yana kelishni rejalashtirib qo'ydim», deb javob berdi. Mavludaning javobidan uning yozgi ta'tili mazmunli o'tayotganiga, oromgohga kelib haqiqatan ham ulkan xazina topganiga amin bo'ldik.

GULYUZ



toblab, ikkovimiz rosa bahorni madh etdik. Inshoni Shukur Sa'dullaning yuqoridagi she'riga nihoyatda o'xshash she'riy misralar bilan yakunladik. «Shoirchilik» ana shu voqeadan boshlandi. O'shanda 1973-yilning erta bahori arafasi edi.

O r a d a n
a n c h a
v a q t
o ' t i b,
i k k i n c h i
m a r o t a b a
«she'r» yozishga
kirishdim. Unga
ham havas sabab
bo'ldi.

B a h o r
k u n l a r i n i n g
b i r i d a
q o ' l i m g a
«Yangi yo'l»
tuman gazetasi
tushib qoldi.
Q a r a s a m,
q o ' s h n i
m a k t a b -

ning 4-sinfida o'qiydigan qo'shiqchi qiz haqida maqola chop etilibdi. Shu qizga bir havasim keldi-ey! Qo'shiq aytganiga emas, gazetada chiqqaniga! Endi meni kim maqtab gazetaga yozarkin, deb rosa bosh qotiribman. Keyin o'zim gazetaga biror narsa, masalan, «she'r»

yoziq jo'natsam bo'ladi-ku, degan xulosaga keldim. Va bu ishning «hadisi»ni olganim yodimga tushib, «she'r yozish» odatimni yana yangidan boshlab yubordim. Daftar, qalamimni olib... lolaqizg'aldoq qoplagan loyshuvoq tom ustiga chiqib ketdim. Kechgacha ko'zimga nima ko'rinsa, o'shani maqtab yozaverdim, yozaverdim. Chipor tovug'imga 164 qator «she'r» bag'ishladim. Aroxo'rlikni qoralab, «Voy belim, voy, voy belim» radifli (radifni nimaligini keyin bilganman) «asar» yozib tashladim. Onam, opam, ammam, dadamga o'qib berdim. Ular: «Yoz, bolam, yozaver!» deyishdi.

Yoza-yoza she'rda «qofiya» degan narsa bo'lishi kerakligini nihoyat fahmlab qoldim. Qofiya nimaligini bilasanmi? Bu bir-biriga ohangdosh so'zlar degani-da! Masalan, «so'z» so'ziga «ko'z»

yoki «bola» so'ziga «lola» so'zi qofiyadosh bo'ladi. Shu gap yodingdan ko'tarilmasin, menga o'xshab birdan she'r yozgung kelib qolsa, bu narsa senga juda asqotadi.

Xullas, qofiya she'rda katta o'rin tutishini bilgach, tovuq va aroxo'rlik haqidagi mavzularni bir chetga yig'ishtirib qo'yib, qofiya yig'ishga kirishib ketdim. Xayolimga kelgan so'zga qofiya topaman. Masalan, daftarga «tosh» so'zini yozaman-da, yoniga chiziqcha tortib, «bosh», «osh», «yosh» so'zlarini yozib ketaveraman. Bu mashg'ulot rosa yoqib qoldi. Darvoqe, bo'sh vaqtingda sen ham bu ish bilan shug'ullanib ko'r. Hech bo'lmaganda, so'zni to'g'ri yozishni o'rganib, maktabga borganingda diktantdan a'lo baho olasan.

Abdurahmon AKBAR

(Davomi bor)

Mukofotga loyiq topilgan yigit-qizlar o'zlariga bildirilgan yuksak ishonchni oqlaydilar

G'OLIBLARNI QUTLAYMIZ!



Davlatimiz rahbari tomonidan ta'sis etilgan «Nihol» mukofoti san'at olamiga kirib kelayotgan qobiliyatli yoshlarni har tomonlama rag'batlantirish, milliy san'atimizni yanada ravnaq topishda muhim omil bo'lmoqda. Mazkur mukofotga talabgor yoshlar safining tobora kengayib borayotgani «Nihol»ning nufuzi yildan-yilga yuksalayotganidan dalolatdir. Tanlovning joriy yildagi saralash bosqichlarida 8 mingdan ziyod yosh ijrochi ishtirok etdi.



jamoat tashkilotlarining vakillari taklif etildi.

Ushbu mukofot uchun o'tkazilgan tanlov estrada san'ati, musiqa ijrochiligi, mumtoz qo'shiq, opera

ijrochiligi va raqs san'ati yo'nalishlarida uch bosqichda o'tkazildi.

Tanlov natijasiga ko'ra, 2009-yilda «Nihol» mukofotiga estrada yo'nalishi bo'yicha Shuhrat Mavlonov (Buxoro viloyati), Suhrob Kenjayev (Navoiy viloyati), Dildora Qurbonova (Samarqand viloyati), Nigina Nabiyeva, Hojimurod Bekjonov (Toshkent shahri), Mirijod Mirkomilov (Toshkent viloyati), Shahrizoda Ahmedova (Farg'ona viloyati), Xurshida Jo'rayeva (Qashqadaryo


viloyati), G'ayrat Bekchanov (Qoraqalpog'iston Respublikasi), opera yo'nalishi bo'yicha Umid Isroilov (Farg'ona viloyati), musiqa ijrochiligi bo'yicha Fazliddin Shafolatov (Surxondaryo viloyati), mumtoz qo'shiqchilik yo'nalishi bo'yicha Adolat Qo'ldosheva (Andijon viloyati), Rayhona Jumaniyozova (Xorazm viloyati), raqs yo'nalishi bo'yicha Gulbar Abipova (Qoraqalpog'iston Respublikasi) sazovor bo'ldilar.

Tantana yakuniga yetganidan so'ng zaldan chiqayotgan bir qizga ko'zimiz tushdi va uni suhbatga chorladik. Suhbatdoshimiz o'zini Xurshida Jo'rayeva deb tanishtirib,

quyidagi so'zlarni aytib o'tdi: – Meni shunday mukofotga loyiq deb topishganidan juda baxtiyor-man. Kelgusida ushbu mukofotni oqlashga astoydil harakat qilaman.

O'ytimizki, ushbu mukofotga loyiq topilgan yigit-qizlar kelgusida o'z yo'nalishlarida san'atning yangi cho'qqilarini egallab, ularga bildirilgan yuksak ishonchni oqlaydilar.

GORIFJONOVA, N.TOJIBOYEVAlar tayyorlashdi. uza.uzdan foydalanildi



Poytaxtimizdagi «Istiqlol» san'at saroyida bo'lib o'tgan ushbu tanlovda san'atning turli yo'nalishlarida izlanayotgan yoshlar, ularning ustoz va murabbiylari, ota-onalari hamda turli

Bir haftadan so'ng, yurtimizdagi barcha maktablar bolalarning quvnoq ovozlari bilan to'ladi. Ayniqsa, endigina birinchi sinfga qadam qo'yayotgan jajji bolajonlar bu kunni sabrsizlik bilan kutayotgan bo'lsalar, ajab emas. Nazarimizda uch oylik ta'til bir zumda o'tib ketganday tuyuladi. To'g'ri-da, kimdir oromgohda dam olgan, yana birov olis qishloqdagi qarindoshlarinikiga mehmonga borgan. Tabiat qo'yniga sayohatga chiqqanlar ham talaygina.

Bunday paytda vaqtning qanday tez o'tishini ham yaxshi bilasiz.

O'qishlar boshlanganda esa ta'tilda bo'lib o'tgan qiziqarli voqealarni do'stlari bilan o'rtoqlashish

yetaklaydi, go'yo.

Qoraqalpog'iston o'z bag'rida yuzlab tarixiy obidalarni saqlab kelayotgan ajoyib go'sha. Bu yerdan yetishib chiqqan ko'plab allomalar dunyo fani va madaniyati

rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. Buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga yetayotgan beruniylik tengdoshlaringiz bugungi kunda bilim sirlarini egallashda katta yutuqlarni qo'lga kiritmoqdalar.

Sayohatimiz chog'ida «Ozod» ovulida bunyod etilgan 15-umumta'lim o'rta maktabining yangi binosini ko'rib, ko'zimiz quvnadi. Zamonaviy talablar darajasidagi bilim maskani barchada havas uyg'otishi tabiiy. Xonalardagi partalar va boshqa jihozlar xuddi oliyog' auditoriyasini eslatadi. Kompyuter xonasining esa eng so'nggi rusumdagi texnologiyalar bilan ta'minlanganiga guvoh bo'lasiz. Beruniy tuman xalq ta'limi bo'limi boshlig'i Nurilla Ro'zimov yangilikka intiluvchan odam – har bir maktabni ana shunday jihozlash harakatida.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri Begdulla Sultonovni maktabning sport zalida uchratdik. Yosh voleybolchilar bilan suhbatlashib turgan Begdulla aka bolajonlarning barkamol voyaga yetishida sportning

«OZOD» OVULIDA BIR KUN



ahamiyati katta ekanligini alohida ta'kidlab o'tdi. Shunisi e'tiborliki, mazkur maktab o'quvchilari turli sport musobaqalarida hamisha peshqadamlar safida. Maktabda ma'naviy-ma'rifiy ishlarga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Tumandagi 11-maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari ham opa-akalaridan o'rnatib olib, voyaga yetmoqdalar. Ular tomonidan ertaklar asosida sahnalashtirilgan tomoshani ko'rganda, bir lahzaga bo'lsa-da, bolalik olamiga qaytgandek bo'ldik. Ularning badiiy gimnastika bilan shug'ullanishlarini ham miriqib tomosha qildik.

Xullas, ovulda yaxshi yangiliklar ko'p. Ularning barini yoritishga ulgurilmadik. Yaxshisi, bu so'lim go'shaga o'zingiz bir keling, barchasiga guvoh bo'lasiz.

Sayohatchilar: Yu.ABDULLAYEV, Sh.NIYANSHIXOVA




qanchalar maroqli.

Yaqinda Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumaniga yo'limiz tushdi. Jonkuyar inson Jumaniyoz aka Rajabov hamkorligida yo'lga otlandik. Ta'til taassurotlaringiz yanada boyishini istasangiz, biz bilan yuring. Zerikmasligingiz aniq. Ovullar, cho'l bag'rida ohista yurib borayotgan tuyalar karvoni sizni ertaklar olamiga

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri Begdulla Sultonov bolajonlarning barkamol voyaga yetishida sportning ahamiyati katta ekanligini alohida ta'kidlab o'tdi.

YANA «QUVNOQ TANAFFUS»



bir voqea misolida eslatib qo'ymoqchiman. Dushanba kuni birinchi darsga kirgan ustozimiz yozma ish yozishimizni aytdi. Daftar, ruchkalarimizni olib, yozma ishga hozirlik ko'ra boshladik. Shunda ustozimizning ko'zi doskadagi yozuvlarga tushdi. Unda shanba kuni oxirgi darsda o'zi yozgan mavzu turardi. Bu holdan ranjigan o'qituvchimiz shanba va dushanba kungi navbatchilarni doska yoniga chaqirib, tanbeh berdilar. Shu tariqa 5-6 daqiqa vaqtimiz behuda o'tdi. Shu vaqt yozma ish topshiriqlarini tushuntirish uchun sarflansa, foydadan xoli bo'lmasdi. Yozma ish yozish uchun har bir daqiqa g'animat-ku, axir! Xo'sh, bunga kim aybdor? Albatta, o'zimiz-da. Tanaffusni faqat o'yin-kulgu uchun sarflamay, doskani tozalab, keyingi darsga taxt qilib qo'ysak, ayni muddao bo'lardi.

Kelasi haftaning shu kuni qardron maktabimiz bag'riga oshiqamiz. Darslar, mashg'ulotlarga kirishib ketamiz. Sevimli sahifamiz «Quvnoq tanaffus» yana bizning hamrohimiz bo'ladi. Kezi kelganda, tengdoshlarimga katta tanaffus faqat dam olish uchungina berilmasligini o'tgan o'quv yilida sodir bo'lgan

Xo'sh, aziz tengdoshlarim, sizning doskangiz darsga tayyormi?
Shahlo IMOMOVA,
filologiya va san'atga ixtisoslashtirilgan maktab-internatning 9-«A» sinf o'quvchisi



ODOB NIMA?

Odob nima ekanin Ustozdan so'radik biz. Ustoz dedi: «Odob bu – Bizning go'zal xulqimiz.

Odobi bor bolaga, Hamma havas qiladi. Odobdan baxt kelishin, Axir hamma biladi».

Gulnoza AXUNOVA

Qanday uch sonning ko'paytmasi ularning yig'indisiga teng?

99-97+95-93-91-89-...+7-5+3-1=

QIZIQARLI MASALALAR

Maktabda 375 o'quvchi bor. Ularning ichida yilning bir kunida tug'ilgan o'quvchilardan hech bo'limganda, ikkita topilishini isbotlang.




KUNDALAR

– Dada, o'qituvchimiz sizning o'rtog'ingizmi?
– Yo'q.
– Nega unda kundaligimga yomon baho qo'yayotib, bugun dadangni aytib kel, bir gaplashib qo'yay, dedilar?..

Bog'chada tarbiyachi gapga kirmay qochib ketgan Bo'g'irsoqni Bo'ri yeb qo'ygani haqidagi ertakni bolalarga o'qib berdi.

Shunda bir bolakay so'rab qoldi:
– Gappa kirganida, uni bobo yeb qo'yardi, a?



SHAFTOLI VOQEASI

Tunov kuni uyda zerikib o'tirgandim. Do'stim Samandar chaqirib qoldi:

– Jo'ravoy amakining eshigi yonidagi shaftolilar g'arq pishibdi, bir shaftolixo'rlik qilmaymizmi? Hozir ko'rdim, Jo'ravoy amaki eshikni qulflab, qayergadir ketdilar.



Ziyrak, topqir bolajonlar, xorazmlik tengdoshingiz Muzaffar Otaboyev chizib yuborgan rasmdagi 9 ta farqni toping.

Bu taklif menga ham yoqib tushdi. Samandar daraxtga chiqib, shaftolilarni menga uzatadigan, men esa ularni qo'ynimga joylab, poyloqchilik qiladigan bo'ldim.

«Ish»ga berilib ketibmiz. Bir payt qarasam, Jo'ravoy amaki ildam qadamlar bilan biz tomonga qarab kelyaptilar. Shoshganimdan do'stinga ham aytmay, ura qochibman. Meni ko'rib, Samandar ham daraxtdan sakrab tushdi-da, orqa-oldiga qaramay qocha boshladi. Shoshilinchda tergan shaftolilarimiz yer bilan bitta bo'lib to'kilib ketdi. Panaroqqa o'tib, Jo'ravoy amakini kuzata boshladik.

– Bay, bay, bay, shunday lazzatli mevalar uvol bo'libdi-ya! Yuqoridagi shoxlariga bo'yim yetmayotgandi, yaxshi o'zi pishib, tagiga tushibdi, – deya yo'lakda to'kilib yotgan shaftolilarni terib olib, uylariga kirib ketdilar.

Oradan 5 daqiqa o'tar-o'tmas qo'llarida qandaydir qog'oz ko'targancha yana tashqariga chiqdilar.

Bildikki, amakining zarur bir hujjati uyda qolib ketgan-u, uni olish uchun qaytib kelganlar.

«Shaftoli» operatsiyasi shu tariqa barbod bo'ldi.

SARDOR,
8-sinf o'quvchisi



BIRINCHI MASHQIMNING SHASHTI



Xalqimizning «Chilgichilgini ko'rib, chumak uradi», degan dono naqli bor. Beshinchi sinfdan o'qib yurgan kezlirim. Ovuldosh og'am Obidjon Zohidov sinfdoshi, «Poromon» qishlog'idan Zarkentga qatnab o'qiydigan Robiddin Isoqovning she'rlari Toshkentda chiqadigan gazetalarda bosilayotganligi haqida gapirib qoldi. Bu xushxabar men uchun kutilmagan yangilik edi. Xalq dostonlaridan bir olam zavq olib yurgan paytlarim.

Ayniqsa, devoriy gazetalarga sinfdoshlarimning ismlarini qofiyaga solib, darsga kelmaydiganlarni, ikkichilarni she'riy yo'l bilan tanqid qilishda ancha «ilg'or» edim. Biroq, boshqa mavzudagi mashqlarimni hatto o'qituvchilarimga ko'rsatishga ham tortinardim. Obidjon aking gaplaridan keyin «O'zbekiston ovozi» va «Tong yulduzi» gazetarini kuzatib borishga odatlandim. Oradan ko'p o'tmay, Robiddin Isoqovning turkum she'rlari «Tong yulduzi»da bosilib chiqdi. Ravon misralari, o'ynoqi qofiyalardan iborat turkum she'rlari menga turtki berdi. Ularni daftarimdagi mashqlarimga

qiyoslab chiqdim. Oradan ko'p o'tmay, Robiddin aka bilan tanishdim.


Yana bir yil davomida badiiy kitoblarni o'qib, mashqlarimni davom ettirdim. Oltinchi sinfdan o'qiyotgan chog'imda ikkita «she'rimni» sevimli gazetamga jo'natdim. «Maktabim» sarlavhali o'n ikki misradan iborat dumbul mashqim Rag'bat tarzida bosilgan gazetani yer-u ko'kka ishonmay, yostig'imning ostida saqlaganman... Mazkur gazetasining o'sha kezdagi xodimi, shoir Abduvohid Mullamuhammedovdan o'nlab maktublar olganman.

Ustoz Mirtemir domla tashkil etgan adabiy kengashlar, hassos shoir Qudrat Hikmatning tilloga teng maslahatlari, keyinchalik ana shu gazetada ishlagan Safar Barnoyev, Cho'lpon Ergash, Tohir Malik, Sulton Jabbor va Hamza Imomberdiyev kabi qadrdonlarim tufayli asosiy asarlarim «Tong yulduzi»da bosilgan. Hatto kaminaga bag'ishlangan ikki misradan iborat dastlabki o'rtoqlik hazilini, shoir Cho'lpon Ergash karikaturam ostiga joylagani yodimda:

*She'r yozmasa bormi,
Yorilib ketar qorni...*

Mana, ellik yildan buyon «Tong yulduzi» gazetasining erka mualliflaridan biriman. Xususan, so'nggi yillarda qaddi-bastini ro'yi-rost tiklab olgan ana shu ijodiy jamoaga sog'lik va omad tilayman.

Tursunboy ADASHBOYEV



ZIYOLI

Ko'cham ziyoga to'la,
Go'yo quyosh nur yo'llar.
Bu quyoshmas, kelib ko'r,
Odamlar taratgan nur.
Ular yursalar har chog',
Yorishadi hammayoq.
Ko'rinar yuksak tog'lar,
Hatto bo'lajak bog'lar.
Bilimli va hayoli,
Chunki ular ziyoli.
Qalblari yorug' darcha,
Unda quyosh bir parcha.

ILTIFOT

Nima sizni qilar shod?
Odamlarda iltifot.
Mendan yurib ko'ring-chi,
Siz o'ting deb birinchi.
Darrov qilishar ta'zim,
Bizlarda shunday rasm.
Qo'lda yuk bo'lsa chopib,
Sizni ko'chadan topib.
Bir iltifot etishar,
Uyingizga eltishar.
Ko'chadan o'tsa viz-viz,
Tramvay, hatto avtobus,
Yo'lovchilari har dam,
O'tirganlar ham birdan.
Turganlarga shu zahot,
Ko'rsatishar iltifot.
Joy berar qilib ta'zim,
Bizda shunaqa rasm.

TO'YONA

– Ketayapsan qayon-a?
– Izlayapman to'yona.
Bizda har kun, har kun to'y.
– Qiynalmagin, do'stim, qo'y.
Olim bo'lsa, ber kitob,
Yaxshiga bo'lsin oftob.
Shoirlarga tungi chiroq,
Qalam, qog'oz yaxshiroq.
Fazogirga po'lat qush,
Uyquchiga shirin tush.
Sozandaga rubob, tor,
Qizg'anchiqqa qishda qor.

HAQIQAT

Bilasiz, shunday maqol,
Azal-azallardan bor.
Egilsa ham haqiqat,
Sinmas, sinmaydi faqat.
Men botirman, yengilmas,
Menda haq so'z egilmas.
O'tsa ham shuncha zamon,
So'zlamas hech kim yolg'on.
Bizda yolg'on, xoinlik
Unga jazo tayinlik.

Kavsar TURDIYEVA

(Boshi o'tgan sonlarda)

Turob aka nuqul bizning tepani ko'rsatib, jin ko'rdim, deb alahlarmish. Kechqurungi voqeani Quvondiqqa aytib berdim. Aytmasam bo'lar ekan. M i s h - m i s h n i n g moshxo'rdasi chiqib ketdi. Direktorga kirib, hisob ham berib chiqdim. Ammo direktor katta tanaffusdagi yig'inda meni maqtadi. «Bo'ladigan bola shunaqa bo'ladi. Chiroq yeg'i yo'q deb bahona qilmaydi, oydinga bo'lsa ham dars tayyorlaydi».

Men kitobni o'qib tugata olmagan bo'lsam ham, kutubxonachi aytgan muddatda topshirdim. U kitobning eng qiziq joyini gapirib berishimni talab qildi. Men qiziq joyi deb bir o'qishdayoq yod bo'lib qolgan she'rni ayta boshladim.


*Andijonda o't yoqsa,
O'shda tutun.
Bu dunyoda bormikan,
Bag'ri butun.*

– Matur, matur, – deb kutilmaganda kutubxonachi opa chapak chalib yubordi.

Direktorning maqtovidan ham ko'ra kutubxonachining «matur, matur»i menga judayam yoqdi. Kutubxonadan yana kitob olish huquqini qo'lga kiritdim.

Bu safar Oybekning «Oltin vodiyan shabodalar» kitobini yozdirib oldim. Meni «Oltin» degan so'z qiziqtirib qolgan edi. Lekin bu

ham tilla haqida bo'lmasa kerak, oldingisidanam chiroq haqida topa olmadim-ku, degan o'y ko'nglimdan kechdi. Ko'chma



Nazokat HASANOVA chizgan rasm

MUXBIRLIKNING OLIS YO'LLARI

ma'nodagi o'xshatishlarni hali tushunmas edim.

Shunday qilib, Jannat opaga yordam beraman, deb qishloqda otning qashqasi bo'lib qoldim, deng. O'rtoqlarim nomim gazetada chiqqandan keyin boshqacha qaraydigan bo'lib qolishdi. Birdaniga katta odamga aylanib qolgandekman. Lekin meni yaxshi ko'radigan yana bitta odam – partkom tog'a bilan oramiz buzilib qoldi. Men u kishini qayerda ko'rsam, salom berishga shoshildim. U kishi bilan do'stligimiz ancha oldin boshlangan edi. Men unda kichkina bola edim. Ammanga ergashib, dalaga chiqardim. Ammam, yana u kishining o'rtog'i, juda ilg'or edilar. Bu boshqa xotinalarga yoqmasdi. Ular tush payti uxlashni yaxshi ko'rishardi. Bunisi ammam bilan o'rtog'iga yoqmasdi. O'shanda idoraga yaqin joyda g'o'za chopiq qilishardi. Ammam bilan

o'rtog'i ancha ish qilib qo'yishdi hamki, boshqalar dalaga chiqishavermadi. Bir uyni qorong'i qilib olib uxlashaverdi. Shunda ammam bilan o'rtog'i ularni raisga borib chaqib berishimni tayinlashdi. Rais qayerdaligini ham ko'rsatishdi. Men orqamga qaray-qaray rais o'tirgan hovuz bo'yiga keldim. Ancha naridan «Rais tog'a» deb chaqira boshladim. Bir kishi kelib «Nima deysan?» dedi. Keyin qo'lga dast ko'tarib olib, xotinalar uxlab yotgan uyni ko'rsatishimni so'radi. Ko'rsatdim. U kishi eshikni dukullatib, uy ichidagilarga baqirib-chaqirdi. Keyin meni yana ko'tarib hovuz bo'yiga olib keldi. «Sen yaxshi bola ekansan, bunaqa ishlarni menga tez-tez aytib tursang, chiroyli kamar olib beraman», degan edi. Keyin bilsam, bu

kishi partkom tog'a ekanlar. Va'da qilgan kamarni olib bermadilar-u, lekin yaxshi do'st bo'lib qolgan edik.

Shu kishi meni ko'chada ko'rib qolib, salomimga alik ham olmay:

– He, bosh og'riq, tom da pishirib qo'yibdimi senga, rosa menga ish ortirding-ku, yot unsur, – dedilar. U kishi birovdan xafa bo'lsalar, «yot unsur» deb urishardilar. Men qishloqqa elektr kelmagan bo'lsa, partkom aybdor bo'lishini qayerdan bilay. Keyin men ataylab shunaqa bo'lsin debmanmi? Bor-yo'g' niyatim Jannat opaga yordam berish edi, xolos. Shundan keyin partkom tog'aning ko'ziga ko'rinmaydigan bo'ldim. Lekin u kishi bilan bo'ladigan «to'qnashuv»lar hali oldinda ekanini, bilib-bilmay u kishining boshiga balalar yog'dirishimni tasavvur ham qila olmas edim.

(Davomi bor)

BOKUGA
BORGAN
BUVA

Tailand poytaxti Bangkokda yakka kurash sport turlari bo'yicha o'tkazilgan 1-Osiyo o'yinlaridan kechagina bir guruh sportchilarimiz Vatanimizga sog'omon qaytib kelishdi. Ular Osiyo qit'asining eng nufuzli sport anjumanida ishtirok etishdi. 4 ta oltin, 5 ta kumush va 12 ta bronza medali bilan yurtimizning 18 yillik bayramiga munosib sovg'a tayyorlashdi. Biz ularni «Toshkent» aeroportida karnay-surnay sadolari ostida tantanali kutib oldik.

Jaloliddin Salimjonov 18 yosh. Toshkent shahri, Chilonzor tumanida tug'ilgan. U 6 yoshidan boshlab sportning kikkoksing turiga muntazam qatnashadi. Ustozi – otasi Qayumjon aka bugun sportchi o'g'lining yutuqlaridan boshi osmonda. Ayni kunda Jamoliddinning ko'ksini besh karra O'zbekiston va bir necha xalqaro turnirlar g'olibi hamda 2008-yilning «Eng yaxshi sportchisi» ko'krak nishoni bezab turibdi.

Maxfiratxon buvini poytaxt aeroportida uchratdik. Qo'llarida katta guldasta.

– Nabiram Jamoliddin Bangkokda bo'lib o'tgan 1-Osiyo o'yinlaridan kelyapti. U kikkoksingchi. Jamoliddin bilan behad faxrlanaman. Yaxshi sportchi bo'lib bizni xursand qilmoqda.

Aeroportning yo'lovchilar chiqish yo'lakhasida turganlar birdan sergaklandilar, «Kelishdi, kelishdi», deya hushyor tortishdi. Jamoliddinni ko'rgan buvining sevinch ko'z yoshlari to'kildi. Guldastasini esa nabirasiga ilindi. Negadir Maxfiratxon buvining qalbidagi mehrdan biz ham faxrlandik.

– Jamoliddin, tabriklaymiz sizni.

– Rahmat.

– O'n ikki kunlik sog'inchi hissini qanday ifoda etasiz?

– Hozirgina samolyot bortidan e'lon qilingan «Poytaxtga qo'ndik» degan yangroq ovozdin barchamiz entikib ketdik. Quyoshli yurtimizni sog'inganimizni bir-birimizga imoli ishoralar bilan ifoda etdik. O'zbekistonning jannatmakon ekanligini o'zga mamlakat bilan taqqoslasangiz, darrov bilinarkan.

– Musobaqa taassurotlaringiz qanday kechdi?

– Yarim final bahsida penchak silat turida filipinlik raqibimga yutqazib qo'ydim. Bangkok menga 3-o'rin bronza medalini taqdim etdi.

Olis yurtdan kelgan nabirasi yuzidagi charchoqni sezgan buvijon, Jamoliddinni bag'riga bosganicha,



g'ururlangancha suhbatimizga qo'shib ketadilar:

– Jamoliddin bilan men o'tgan yili Bokudagi musobaqalariga ham borganman! U yerdan biz oltin medalli bo'lib qaytgandik.

Bu safar men Bangkokka borolmadim-da, shuning uchun Jamoliddin bronza medalli bo'libdi, – deya hazil qilib sportchi nabirasini boshini silaydilar.

– Demak, Bangkok sizning birinchi xorij safaringiz emas ekan-da?

– Ha, o'tgan yili Bokuga va Italiyaga ham musobaqalarga borganman. Endigi mashg'ulotlarimiz Koreyada o'tadigan jahon chempionatiga qaratiladi.

Tahririyatdan:

Gazetamiz sahifalanayotganda, Jamoliddin akangiz haqida xushxabar eshitdik. U kuni kecha O'zbekiston chempionatida penchak silat bo'yicha 55 kg. vazn toifasida qatnashib, yana chempion bo'ldi.

KURASHCHI QIZ CHEMPION

Muqaddas opangiz Bangkokdagi mahorati bilan O'zbek kurashi tarixini zarhal harflar bilan bezadi.



Muqaddas Kubeyeva «Pahlavon» klubi a'zosi. U to'rt karra O'zbekiston chempioni. Mongoliyada o'tgan jahon chempionatining kumush medali sovrindori. Ustozlarga ergashgan chempion qiz bugun davralarda hakamlik ham qilmoqda. Ayni kunda Muqaddas opangiz O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining yakka kurash fakultetining 3-bosqich talabasi.

Bangkokdagi 1-Osiyo o'yinlari musobaqalar jadvaliga milliy sport turimiz – kurash ham kiritildi. Bu ehtiromni qadriyatlarimiz tantanasi, deb qabul qildik. Tantana yana tantanaga ulandi. O'zbekistonlik Muqaddas Kubeyevaning ushbu musobaqadagi oltin medali o'zbek kurashi bo'yicha Osiyo o'yinlarida oltin medalga sazovor bo'lgan birinchi sportchi sifatida tarix zarvaralaridan o'rin oldi.

Qit'a birinchiligida polvon qizlarimizdan toshkentlik Muqaddas opangiz ham munosib ishtirok etdi.

– Oltin medal muborak bo'lsin, Muqaddasxon! Qomatingiz polvonkelbatmas, aksincha, badiiy gimnastikachilarga o'xshar ekan...

– Men kurashchiman, – deya kuladi xandon otib chempion qiz.

– Men esa gilamga faqat polvonlar chiqadi, deb o'ylar ekanman, – deyman bo'sh kelmay. Raqiblaringiz ham sizdek chayir edimi?

– Albatta men vazni yengil tengdoshlarim bilan raqiba bo'ldim. Haqiqiy kurash yurtidan ekanligimni o'rgatgan murabbiyim Olim aka Hayitovdan minnatdorman.

– Kurash bilan shug'ullanganingizga qancha vaqt bo'ldi?

– O'n yildan beri kurash tushaman. Ko'p davlatlarda bo'ldim. O'zbek qizi uchun kurashchi bo'lishni ko'pchilik ma'qullamaydi.

Ammo 12 yoshimdan kurashga mehrim tushgan. Uning shiddati, g'ayrati va jozibasidan kuchga to'laman.

– Musobaqadagi raqiblaringiz va omad haqida nima deysiz?

– Chempionatning birinchi kunidayoq men 48 kg. vazn toifamda qatnashib, o'z raqibalarimni yelkasini yerga tekkizdim. Yarim finalda vietnamlik raqibamni 2:0, finaldagi tailandlikni esa 0:10 hisobida halol yo'l bilan yutdim. Negadir musobaqa oldidan men ana shu omadga chin dildan ishongandim. Ishonch sportchini sof g'alabaga yetaklashiga yana bir bor amin bo'ldim.

Osiyo o'yinlaridagi ilk medal sohibasi bo'lish menga nasib etganini o'ziyoq kurashdan topgan baxt va yoshlik shijoatimdir.

OZ-OZ
O'RGANIB...

Bir donishmand bunday degan ekan:
– Dono rizqini izlab, dunyoning nariga yog'iga ham borishga tayyor, ammo nodon olma pish, og'zimga tush, deb o'tirgan joyidan nari jilmaydi.
Anushervon shunday degan ekan:
– Bekorchilik kishini behuda xayollar bilan buzib boradi, behuda xayollar esa kishining osoyishtaligini buzadi.


Buzurgmehrardan:
– Nega do'stning dushmanga aylanishi oson-u, dushmanning do'st bo'lishi qiyin? – deb so'rabdilar.
– Imoratni buzish qurishdan, jomni sindirish payvand qilishdan, pulni sarflash topishdan osonroqda, – debdi u.

Bir donishmand shunday degan ekan:
– Nayzaning zahmi bitib ketadi, ammo tilning zahridan paydo bo'lgan zahm sira bitmaydi.

– Dunyoviy lazatlar dengizining suviga o'xshaydi, ichgan sari chanqog'ing oshadi, – debdi bir donishmand.

Dono miyasini to'ldirgani qayg'ursa, nodon qornini to'ydirgani qayg'uradi, debdi bir donishmand.

– Qanaqa odamni eng kuchli hisoblashi mumkin? – deb bir faylasufdan so'rabdilar.
– Nafsini tiya oladigan, egri yo'ldan xazar qila oladigan odamni, – debdi faylasuf.




**GULLAR
XIJO LAT**

Bugun men sizlarni ana shunday pazanda qizlarimizdan biri, ismi jismiga monand tengdoshingiz Dilsora Mo'minova bilan tanishtirmoqchiman. Dilsora Toshkentdagi 32-maktabning 7-sinfini a'lo baholarga tugatdi. Yozgi ta'tilda ham bekor o'tirmadi. Uyidagi qurilish ishlarida ota-onasiga katta yordam berdi: shirin-shirin taomlar, muzdekkina olchali sharbatlar tayyorlab, ustalarni siyladi.

Dilsorabonu go'zallik va gullar shaydosi hamdir. Dizaynerlikka ham qiziqadi. Yangi-yangi rusumdagi liboslarning chizmalarini chizish bilan mashg'ul. Uylariga kirib borsangiz, eshikning oldidan boshlab ichkarigacha chaman ochilib turgan gullar ko'zingizni qamashtiradi. Gullar qanchalar go'zal bo'lishmasin, go'yo Dilsoraning chiroyi oldida xijolat chekishayotgandek.

**Qizlar
AKADEMIYASI**



Mening aziz qizaloqlarim! Yozgi ta'tilni zerikmasdan o'tkazayapsizmi? Nimalar bilan shug'ullanyapsiz? Ba'zilaringiz oromgohda dam olgan, yana kindir til o'rganish bilan shug'ullangan, qay biringiz onajoningiz ishdan kelgunicha ochil dasturxonni to'ldirib, shirin taomlar-u, turli shirinliklar pishirib qo'yayotgan bo'lsangiz, ajabmas.

**Zeb-u ziynat ne kerak,
Otim o'zi Zebunniso!**

O'zbek ayollari qadimdan ibo-hayosi bilan ardoqlanib keladilar. Shunday ayollardan biri Arjumand Bonu, ya'ni malika Mumtoz Mahaldir. Mumtoz Mahal begim ham boshqa malikalar singari turmush o'rtog'i Shoh Jahonga davlatni boshqarishda ko'maklashdi. Shoh Jahon vafotidan keyin uning hurmatini saqlab, o'ttiz olti yil yolg'izlikda yashab, hayotdan ko'z yumdi.

Shoh va sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning evarasi bo'lgan Avrangzeb Olamgirning qizi Zebunniso begim o'z zamonasining zukko ayollaridan bo'lib, katta iste'dod egasi edi. U shoira sifatida o'zining chuqur falsafiy mazmunga ega she'rlari bilan klassik adabiyot ravnaqiga salmoqli hissa qo'shgan.

Zebunniso begim nafaqat iste'dodli shoira, balki ko'p qirrali san'atkor bo'lgan. Dutorni me'yoriga yetkazib chalish bilan birga, husnixat yozishda ham mashhur xattot edi. Uning bizga «Munis-ul-arvoh» nomli devoni va «Zeb-attafsir», «Zeb-an-nashot» nomli she'riy to'plamlari meros bo'lib qolgan. Bunday mashhur ayollardan o'rnatilgan, ular kabi ish yuritish biz uchun sharafdir.

**ENDI SIZNIKI
BO'LSIN!**

Sahifamizning yana bir mehmoni «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofoti sohibasi Saida Qulmatova:

– Mustaqil yurtimizda iste'dodli yoshlar hech qachon rag'batsiz, e'tiborsiz qolmasligini tushunib yetdim. Biz yoshlardan talab qilinadigani esa iste'dodimizni namoyish etish va a'lo baholarga o'qish. Mehnatdan qochmaslik kerak ekan. Aziz tengdosh dugonalarim, kelgusidagi mukofotlar sizniki bo'lsin.

**QIZIQUVCHAN
DIYORA**

Andijonning so'lim qishloqlaridan birida yashaydigan bu yoqimtoy qizning ismi Diyoraxon.

Til bilgan – el biladi, deydi u. Hali yosh bo'lishiga qaramay, oliy o'quv yurtiga o'qishga kirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Rus va ingliz tili darslariga faol qatnashib, chet tillarini chuqur egallashga harakat qilyapti. Yana u rasm chizish, musiqa chalish, qo'shiq aytishni ham maromiga yetkazadi. Orzulari osmon bu qizaloqqa omad tilaymiz.



MAKTUBLARDAN SATRLAR

Qani, aziz qizaloqlarim, sahifamizning maktublar navbatdagi konferensiyasida qutisini ham bir ochib ko'raylik-chi. Iye, ancha delegat bo'lib xatlar yig'ilib qolibdi-yu. O'qib ko'raylik-chi, dugonalaringiz nimalar haqida qatnashdim.

– 2008-yil menga omadli keldi, deb yozibdi Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 2-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

Bo'stonoy Barkasheva: – Tumanda o'tkazilgan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Beshariq tumani bo'limining



Toshkentda o'tkazilgan «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti Respublika festivalida ham chizgan rasmlarim bilan ishtirok etib, sertifikatga ega bo'ldim. Bunday yutuqlarga erishayotganimdan behad xursandman. Meni qo'llab-quvvatlayotgan o'qituvchilarimdan hamda biz yoshlarga shunday sharoitlar yaratib berayotgan yurtboshimizdan minnatdorman. Bunday e'tiborlar bizning kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shadi.

Topishmoqlar

Vaqt bilan soch tishlar
Oynaga qarab ishlar...



Cheti gulli patir non,
Ichi to'la g'ij-g'ij don...

Mazasi qaymoq kabi,
Eriydi sariyog' kabi.
Yozda rohat yesangiz,
«Oh-oh, mazza!» desangiz...



Sahifani Manzuraxon tayyorladi



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

**BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV**

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV
Olovuddin ARIPOV
Navbatchilar:
Feruza SOYIBJON qizi,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 700129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 26555
Buyurtma N: J 7966